

-Qanday tovush bilan tanishdingiz?

-Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?

-Bugungi darsda sizga nima yangilik bo'ldi?

-Qaysi topshiriqni bajarishga qiyndalingiz?

10-mavzu: [n] tovushi. Nn harfi yuzasidan amaliy topshiriqlar

Dars maqsadi:

- [n] tovushining talaffuzi va Nn harfining bosma shakli yuzasidan amaliy topshiriqlar bajaradilar;
- so'zlardan [n] tovushining o'rnini aniqlashni o'rganadilar;
- so`zni bo`g`inga bo`lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;

Tayanch so'zlar: gapni o`qish, boshqotirma, [n] tovushi ishtirokidagi so`zlardan tovushlar sonini aniqlash chizmasi.

Didaktik materiallar: ko`k va qizil rangli kichik kvadratlar, rasmlı kartochkalar , kesma harflar, Yurtimizdagи non turlari tasviri.

Darsning borishi:

I.Kirish qismi (5 daqiqa)

Faollashtirish mashqi:

Kalendar : O'quvchilardan bugungi kun sanasi so'raladi.

Kim chaqqon mashqi: O'qituvchi doskaga kesma harflar yordamida o harfini va uni atrofiga na, ta, no, to, at, ot bo`g`inlar yozilgan kartochkalarni qo`yadi. O'quvchilardan bo`g`inlarni o`qib o harfiga qo'shib o`qiganda so`z hosil qilish mumkin bo`lgan bo`g`inlarni tanlab olishni aytadi. O'quvchilar o'tirgan joylarida avval o`qiydilar. Kim topsa o`rnidan turib shu bo`g`inni qo`liga oladi.

Asosiy qism (40 daqiqa)

1.Amaliy topshiriq bajarish: (5 daqiqa)

O`qituvchi kesma harflar yordamida barcha o`tgangan harflari bilan so`z hosil qilishni so`raydi.

Kesma harflaringiz yoramida o'rgangan harflarimiz bilan so'zlar tuzing.

Tuzgan so'zlariningizni partadoshingizga o'qib bering.

Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

- *Qanday so'zlar tuza oldingiz?*
- *Partadoshingiz qanday so'zlarni tuza oldi?*
- *Partadoshingiz tuzgan so'zlar orasidan qaysi birlari siz tuzgan so'zlar orasida yo'q?*

2.Mavzuni mustahkamlash: (10 daqiqa)

Darslikdagi harflar tasmasidan o'tilgan harflar eslanadi.

O'qituvchi [n] tovushini so'zlar orasidan qanday aniqlashni tushuntiradi. Unli tovushlar to'siqqa uchramasligi, cho'ziq aytilishi va unli tovushlarni chizmada shartli ravishda qizil rangda belgilanishini , undosh tovushlar talaffuzda to'siqqa uchraydi, qisqa aytiladi uni shartli ravishda ko'k rang bilan berilishi aytiladi.

Doskada bir so'zni o'quvchilar bilan birga muhokama qiladi.

Nok(rasmi)- bo'g'inga bo'linadi 1 bo'g'in, bo'g'inda nechta tovush borligini aniqlaydi. 3 ta tovush. Nn tovushi birinchi katakda ekanligini aniqlab shu katak ko'k rangga bo'yaladi.

Darslikda berilgan rasm asosida so'z tahlili chizmasi birgalikda bajariladi.

"Moslashtiring" mashqi

Chizmaga mos so'zni ifodalayotgan rasm birlashtiriladi va tahlil qilinadi.

Darslik 21-sahifa

[n] tovushi. Nn harfi 10-dars

o a

t n

on	o-na	tan	Ona, ana non.
ont	o-ta	ta-na	Ota, non
non	a-na	no-ta	Non

Boshqotirmani yeching.

N + **6 + n** **+ na**

Rizqimiz manbayi don –
Nonni uvol qilmaymiz.
Muqaddasdir biz-chun non,
Muqaddas – bizning makon!

21

Darslik bilan ishlash: (15 daqiqa)

Darslikda berilgan gap chizmasi asosida gap tuzing.

Berilgan so'z va gaplarni o'qing.

Gaplarni mazmunga mos so'zlar bilan to'ldiring.

Boshqotirmani yeching.(nari, oltin, oyna)

She'rni o'qing. (She'rni o'qituvchi yoki o'qishni biladigan bola o'qiydi)

She'rdan Nn harfli so'zlar topiladi.

Yurtimizdagi non turlari haqida suhbat o'tkaziladi.

Qanday non turlarini bilasiz?

Siz yashab turgan joy nonlari boshqa joylardan farqi bormi?

O'zbekistondagi mashxur non turlari haqida ayta olasizmi?

O'qituvchi uchun eslatma:

Gaplarni o'qiganda gap hususiyatlari haqida eslating. Gap chizmasini chizib yozuvdagagi gap bilan taqqoslang.

Boshqotirmani avval tushuntiring so'ng birgalikda yeching. Hosil bo'lgan so'zlarni izohlang.

1. Daftar bilan ishlsh: (10 daqiqa)

1.Harflar orasidan to'g'ri yozilganlarini topib belgilang.

2. Namunaga qarab har bir harfga mos shaklni chizing.

3. Rasmni ifodalovchi so'zlar orasidan N tovushi bor so'zlarni topib bo'yang.

Darsga yakun yasash:

-Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?

-Amaliy mashqlardan qaysi birini siz o'zingiz mustaqil bajara oldingiz?

-Qanday mashqlarni uyda takrorlay olasiz?